Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/4

Abdullatif ALLOQULOV[a]

[a] *Doctor of Philosophy in History, Associate Professor*
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: alloqulovabdullatif@gmail.com

MOTURIDIYLIKDA TAKVIN SIFATI: MA'NOSI VA ZOTIY SIFAT BILAN ALOQASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada moturidiylik ta'limotidagi takvin sifatiga oid ta'limot va uning zotiy sifatlar bilan bog'liq masalalari atroflicha tahlil qilingan. Muallif moturidiy olimlar va boshqa mutakallimlarning takvin masalasiga qarashlarini yoritar ekan, mazkur qarashlar o'rtasidagi xilma-xillik Allohning sifatlari, fe'llari hamda ularning inson fe'llari bilan bog'liqligidagi nazariy asoslarga borib taqalishini ko'rsatadi. Moturidiy olimlar takvinni Allohning qadimiy va azaliy sifatlaridan biri deb bilib, uni qudrat, iroda va ilm kabi zotiy sifatlar qatoriga kiritganlar. Ularning fikriga ko'ra, takvinning turlicha fe'llar bilan namoyon bo'lishi, ya'ni yaratish, rizq berish, tiriltirish, o'ldirish kabi amallar uning ta'siridan kelib chiqadi. Ammo bu turli fe'llar zotda farqni anglatmaydi, balki ta'sirdagi xilma-xillikni ifoda etadi. Ushbu mavzuda Abul Muin Nasafiy, Abu Mansur Moturidiy kabi allomalarning fikrlari asosida «takvin»ning ma'nosi va mazmuni ilohiy zot bilan aloqador holda asoslantirilgan.*

Kalit so'zlar: *olim, ilm, qodir, qudrat, mutakallim, kalom, xoliq, taxliq, foil, fe'l, maf'ul, maxluq, muhdas, kufr.*

THE ATTRIBUTE OF TAKWIN IN MATURIDISM: ITS MEANING AND RELATIONSHIP TO THE «ZOTIY» ATTRIBUTE

Abstract. *This article provides a comprehensive analysis of the doctrine of the attribute of takwin (creation) in Maturidite theology and its relation to the essential divine attributes. Exploring the perspectives of Maturidite scholars and other theologians (mutakallimun) on the issue of takwin, the author demonstrates that the diversity among these views stems from theoretical foundations concerning the attributes and acts of Allah, as well as their relationship to human actions. Maturidite scholars regard takwin as one of Allah's eternal and primordial attributes, placing it alongside essential attributes such as power (qudrah), will (iradah), and knowledge ('ilm). According to their view, the manifestation of takwin through various acts – such as creating, sustaining, giving life, and causing death – derives from its effect. However, these distinct acts do not imply a multiplicity or distinction within the Divine Essence itself, but rather express diversity in its effects. Based on the opinions of prominent scholars such as Abul Mu'in al-Nasafi and Abu Mansur al-Maturidi, the meaning and essence of takwin are substantiated in direct relation to the Divine Essence.*

Keywords: *Scholar, Knowledge, Omnipotent, Power, Theologian, Kalam, Creator, Creation, Agent, Act, Object (of the act), Creature, Contingent being, Disbelief*

Moturidiy olimlar va boshqa mutakallimlar qarashlari o‘rtasidagi ixtiloflardan biri Alloh taoloning takvin sifatiga oid bo‘lib, mazkur ziddiyat har bir kalom maktabining asosiy qoidalari hamda ilohiy sifatlarning Alloh taoloning Zoti va fe’li bilan bog‘liq tushunchalariga asoslangan. Shuningdek, bu qarama-qarshilik insonning fe’llari, ularning nomlanishi va shakllarini anglash borasida ham o‘ziga xos jihatlarga egadir.

Moturidiy olimlar takvin sifati borasida o‘ziga xos yondashuvga ega bo‘lib, ular bu sifatni qadim (azaliy) deb bilishgan. Ularning fikriga ko‘ra, takvin sifatiga bog‘liq hukmlar zotiy sifatlar bilan bog‘liq hukmlardan farq qilmaydi. Ya’ni, olamning yaratilishi التخليق (at-taxliq), rizq berish الترزيق (at-tarziq), fazl-ehson qilish الإفضال (al-ifzol), in’om etish الإنعام (al-in’om), yaxshilik qilish الإحسان (al-ihson), rahm-shafqat qilish الرحمة (ar-rahma), mag‘firat qilish المغفرة (al-mag‘fira) va hidoyatga yo‘llash الهداية (al-hidoya) kabi fe’llarning barchasi «takvin» sifati bilan bog‘liqdir. Moturidiy olimlar mazkur sifatni qadim deb hisoblab, uni القدرة (al-qudra) qudrat, الإرادة (al-iroda) iroda, العلم (al-ilm) ilm va الحياة (al-haya) hayot kabi Allohning azaliy sifatlari qatoriga kiritganlar.

Bu yondashuv o‘z vaqtida bir qator muammo va savollarni keltirib chiqargan. Jumladan, moturidiy olimlar zotiy va fe’liy sifatlarga qanday munosabat bildirganlar? Takvin sifati Allohning qudrati bilan qay tarzda bog‘liq? Takvin qadim bo‘lsa, unda المكونات (al-mukavvanot) «yaratilgan narsalar» qanday hodis (keyin paydo bo‘lgan) bo‘lishi mumkin? Moturidiy olimlar «takvin» sifati va unga bog‘liq masalalarni batafsil sharhlab, bu sifatning ilohiy Zot va inson fe’li bilan bog‘liqligi yuzasidan o‘z qarashlarini bayon etganlar. Shuningdek, ular bu borada tanqidchilarning qarashlariga, muqobil tomonning keskin e’tirozlariga javoblarni ham taqdim etganlar.

Maqolada moturidiy olimlarning asosiy manbalaridan kelib chiqqan holda, ularning takvin sifati haqidagi qarashlari bayon qilingan. Ushbu masalada ularga qarshi aytilgan eng muhim shubhalar tahlil qilingan. Shuningdek, moturidiy olimlarning mazkur shubhalarga bergan javoblari bayon qilingan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mutakallimlar va moturidiy olimlar o‘rtasidagi takvin sifatiga oid ixtilof aslida ilohiy sifatlarning nomlanishi bilan aloqador ekaniga borib taqaladi. Ixtilofning mohiyati shundaki, Alloh taoloning fe’llari natijasida vujudga kelgan holatlar turli nomlar bilan ataladi hamda ularning ta’siri har xil shaklda namoyon bo‘ladi. Hosil bo‘lgan fe’llar Alloh taoloning maf’uli (yaratig‘i) hisoblanadi. Masalan, Alloh taoloning الإحياء (al-ihyo) «tiriltirish» sifati bilan qandaydir mavjudotning hayotga kelishi, الإماتة (al-imota) «o‘ldirish» sifati bilan qandaydir mavjudotning o‘lishi, التحريك (at-tahrik) «harakatga keltirish» sifati bilan qandaydir mavjudotning harakatga keltirishi misol bo‘ladi. Shuningdek, barcha fe’llar ham o‘z mazmuniga ko‘ra turli nomlar bilan ifoda etiladi: إيلام (ilom) «og‘riq berish», كسر (kasr) «sindirish», قطع (qat’) «kesish», قتل (qatl) «o‘ldirish», جرح (jarh) «jarohatlash», إطعام (it’om) «taomlantirish», إشراب (ishrob) «ichirish», إكرام (ikrom) «ikrom qilish», منع (man’) «man qilish», إعطاع (i’to’) «berish», ترزيق (tarziq) «rizqlantirish», تصوير (tasvir) «tasvirlash» va boshqalar.

Mutakallimlar o‘rtasidagi mazkur ixtilof uch asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchisi ilohiy sifatlarning haqiqati hamda ularning Alloh taoloning Zoti bilan bog‘liqligidir. Ikkinchisi yaratilgan fe’llarning Alloh taoloning qudrat, iroda va takvin sifatlari bilan aloqadorligidir. Uchinchisi esa mutakallimlar takvin sifati va uning hodisotlar (yaratilgan narsalar) bilan bog‘liqligi doirasida duch kelgan muammolarga tegishlidir.

Moturidiylik ta’limotiga ko‘ra, takvin sifati yagona va qadimiy bo‘lib, Alloh taolo xuddi bitta qudrat bilan Qodir va bitta ilm bilan Olim bo‘lgani kabi, bitta fe’l bilan Foildir. Uning fe’llari turli nomlar bilan atalishiga kelsak, bu Uning Zotidagi farq sababli emas, balki ularning ta’siri va natijalari turlicha bo‘lgani uchun shunday nomlangan. Fe’l nomlarining ko‘pligi va xilma-xilligi, Uning Zotining ko‘pligi yoki xilma-xilligi bilan emas, balki uning yaratig‘i va ta’sirining turfa xilligi bilan izohlanadi[1]. Bu borada Abul Muin Nasafiy shunday degan: «Bilingki, التكوين (at-takvin) «takvin», التخليق (at-taxliq) «yaratish», الخلق (al-xalq) «xalq qilish», الإيجاد (al-ijod) «paydo qilish», الإحداث (al-ihdos) «bor qilish» va الإختراع (al-ixtiro’) «yo‘qdan paydo qilish» atamalari o‘zaro sinonim so‘zlar bo‘lib, ularning barchasi bitta ma’no, ya’ni «yo‘qlikdan borlikka chiqarish» ma’nosini ifodalaydi. Shuning uchun biz

[1] Abu Muin Maymun ibn Muhammad. Tabsira al-adilla fi usul ad-din // Huseyn Atay tahqiqi. – Anqara: Raislik ishlari bo‘yicha diniy ishlar boshqarma, 2004. – B. 489.; Shayx Kamoliddin Ahmad bin Hasan. Ishorat al-marom min ibarot al-Imom Abu Hanifa. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2007. – B. 181.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

bularning barchasining ma’nosini o‘zida aks ettirgan «takvin» so‘zini salafi solihlarimizning maslakiga ergashib qo‘llaymiz»[2].

Moturidiy olimlar o‘z asarlarida ushbu sifatga alohida e’tibor qaratib, uni bayon etish, muhokama qilish va muxoliflariga raddiya berishga katta ahamiyat berganlar. Buning sababi, Nasafiyning ta’kidlashicha, ular bu masalada boshqa mutakallimlardan ajralib turgan edilar. Ularning muxoliflari esa ularga qarshi tortishuv va tanqid bilan chiqishni istagan edilar. Shu bois, moturidiy olimlar ushbu sifatning haqiqati va qadimligini bayon etishni maqsad qildilar hamda o‘z qarashlarining haqligini isbotlashga harakat qildilar. Moturidiy olimlarning tasdiqlashlaricha, haqiqat ozchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi bilan zaif bo‘lib qolmaydi, botil esa ko‘pchilik tarafidan qo‘llab-quvvatlanishi bilan haqiqatga aylanib qolmaydi.

Allohning sifatlarini taqsimlash va ularning hukmlarini ajratish Imom Moturidiy va ko‘pchilik mutakallimlar o‘rtasidagi ixtilofning asosiy sabablaridan biridir. Ularning barchasi sifatlarning zotiy va fe’liy sifatlarga bo‘linishiga ittifoq qilgan bo‘lsalar-da, biroq har bir qismning mazmuni, unga bog‘liq hukmlarda ixtilof qilishgan.

Moturidiy olimlar zotiy va fe’liy sifatlarni bir-biridan farqlamay, ularning barchasini Zotning azaliy sifatlari deb qabul qilganlar. Bu haqda Abu Mansur Moturidiy: «Uning fe’liy sifati, aslida Uning zotiy sifatidir», deb ta’kidlagan[3]. Uning izdoshlari ham bu fikrga ergashib, sifatlarni ikkiga bo‘lishni qabul qilgan bo‘lsalar-da, biroq ular borasida bir xil hukm chiqarganlar. Abul Muin Nasafiy «Bahr al-kalom» asarida: «Sifatlar ikki turga bo‘linadi: zotiy va fe’liy sifatlar. Zotiy sifatlar الحياة «al-hayo» (tiriklik), القدرة «al-qudra» (qudratlilik), السمع «as-sam’» (eshitish), البصر «al-basar» (ko‘rish), العلم «al-ilm» (bilish), الكلام «al-kalom» (gapirish), المشيئة «al-mashia» (xohlash) va الإرادة «al-iroda» (iroda qilish); fe’liy sifatlar: الخلق «al-xalq» (yaratish), الترزيق «at-tarziq» (rizq berish), الإفضال «al-ifzol» (fazl ko‘rsatish), الإنعام «al-in’om» (ne’mat berish), الإحسان «al-ihson» (yaxshilik qilish), الرحمة «ar-rahma» (rahm qilish), المغفرة «al-mag‘fira» (mag‘firat qilish) va الهداية «al-hidoya» (to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish). Alloh taolo O‘zining barcha sifatlari va ismlari bilan yakkayu yagonadir[4]. U barcha sifatlari va ismlari bilan qadimiy, azaliy Zotdir[5]. Shuning uchun zotiy va fe’liy sifatlarning barchasi azaliydir[6]. Shuning uchun moturidiy olimlar التكوين «at-takvin» va boshqa fe’liy sifatlarni e’tiboriy sifat deb bilmay, balki haqiqiy, azaliy sifat deb xulosa qilganlar[7]. Ular nazdida fe’liy sifatlar bevosita fe’lning o‘zi emas, balki uni paydo qiluvchisidir. Shuning uchun fe’liy sifatlar qadimiy, fe’lning o‘zi esa hodis (yaratilgan) hisoblanadi. Fe’liy sifat aslida yagona sifatdir, biroq u taalluqining e’tiboridan turlicha nomlanadi[8].

Mo‘taziliylar nazdida القدم «al-qidam» (qadim) sifati Alloh taoloning xos sifatidir. Shu sababli qadimiylikka zid har qanday sifatni inkor qilganlar. Ular: «Qaysidir ma’no yoki fe’liy sifatning qadimiyligini tasdiqlash zotlarning soni ko‘payishiga olib keladi», deganlar. Bu ularning eng muhim asoslaridan bo‘lgan «at-tavhid»ga zid keladi. Shu boisdan, mo‘taziliylar Alloh taolo olim, qodir, tirik, eshituvchi va ko‘ruvchi ekanligini Uning zotiga xos deb bilib, zotga qo‘shimcha ma’no sifatida olim, qodir, tirik, eshituvchi va ko‘ruvchi sifatlarining qadimiyligini inkor etishgan. Bu bilan ular Alloh taoloning «ilm», «qudrat», «eshitish» va «ko‘rish» sifatlarini inkor qiladilar.

«Kalom»ga kelsak, ular buni Alloh taoloning fe’llaridan biri deb bilib, uni O‘zi ixtiyor qilgan paytda maxluqotlar bilan muloqot qilish uchun jismlarda yaratib, vujudga keltiradi, deb ta’kidlashgan. Shu sababli, ular «kalom» sifatini hodis va maxluq deb bilishgan. Ibn Murtado bu haqda shunday degan: «Mo‘taziliylar olamning yaratuvchisi qadim, qodir, olim, tirik bo‘lib, bu sifatlar zotga qo‘shimcha ma’nolar vositasida emas, deb ittifoq qilishgan». «Devon al-usul» kitobining muallifi: «Alloh taolo qudrat sifatisiz qodirdir», deya ta’kidlagan.

[2] Abu Muin Maymun ibn Muhammad. Tabsira al-adilla fi usul ad-din // Huseyn Atay tahqiqi. – Anqara: Raislik ishlari bo‘yicha diniy ishlar boshqarmasi, 2004. – B. 400.; Ta’toziy. Sharh al-Aqoid, Istanbul, 1982. – B. 174.

[3] Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid // Fathulloh Xulayf tahqiqi. – Iskandariya: Dor al-jomi’a al-misriya, 1970. – B. 51.

[4] Bu Abu Mansur Moturidiy va uning aksariyat izdoshlarining qarashidir. Bu masalada Movarounnahrning ba’zi olimlari ularga xilof qilishgan. Jumladan, ular rizq berish, tiriltirish, o‘ldirish va tasvir kabi sifatlarni haqiqiy sifatlar, ammo bir emas, balki har biri alohida qadimiy sifat deb da’vo qilganlar. Bu moturidiy olimlar tomonidan tark etilgan qarash hisoblanadi. Uning shozz va qabul qilinmaydigan fikr ekaniga ishora qilish uchun bu yerda zikr qilindi (Qarang: Xiyoliy. Sharh al-Xayoliy ala an-nuniya li-l-mavla Xizr ibn Jaloliddin // Abdunnasir Natur Ahmad Malibariy tahqiqi. – Qohira: Maktaba vahba, 2008. – B. 210.

[5] Abul Muin Nasafiy. Bahr al-kalom // Muhamma Sayyid Barsijiy tahqiqi. – Iordaniya: Dor al-fath, 2014. – B. 104.

[6] Tabsira al-adilla. – J. 1. – B. 405.

[7] Qosim ibn Qutlubg‘o. Hoshiya ala al-musomara ala al-Musoyara. – Qohira: al-Maktaba al-azhariya, 2006. – B. 91.

[8] Ishorot al-marom. – B. 181-187.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Mo‘taziliylar nazdida «iroda» sifati ham «kalom» sifati kabi hodis bo‘lib, uning qadimiy bo‘lishi mumkin emas. Qozi Abduljabborning ta’kidlashicha, u qadim emas, balki fe’liy sifatdir. Tiriltirish, o‘ldirish, takvin, surat berish, rizq berish kabi sifatlar fe’liy sifatlar bo‘lib, ular hodis hisoblanadi.

Moturidiylik ta’limotiga ko‘ra, zotiy sifatlar deb Alloh taoloni ularning ziddi bilan tavsiflash mumkin bo‘lmaydigan sifatlarga aytiladi. Ya’ni, mazkur sifatlar Allohning Zotida doimiy va zaruriy ravishda mavjud bo‘lib, Uning komilligini ifoda etadi. Bunday sifatlarga quyidagilar kiradi: hayot (tiriklik), qudrat (qodirlik), ilm (bilish), kalom (so‘zlash), sam’ (eshitish), basar (ko‘rish) va iroda (ixtiyor). Masalan, Allohni «ilmli» deyish mumkin, ammo «johil» deyish mumkin emas. Demak, bu kabi sifatlarning ziddi bilan Alloh taoloni tavsiflash joiz emas.

Fe’liy sifatlar Alloh taoloni ularning ziddi bilan tavsiflash mumkin bo‘lgan sifatlardir. Masalan, yaratish va rizq berish fe’liy sifatlarga kiradi. Alloh bir paytda yaratadi, ba’zan esa yaratmaydi; rizq beradi, ba’zan rizq bermasligi mumkin. Shu bois, mazkur sifatlarning irodaga bog‘liq ravishda sodir bo‘lishi va ma’lum vaqtda yuz bermasligi mumkin. Shuningdek, mehribonlik va rahmlilik kabi musbat fe’llar hamda qahr va g‘azab kabi manfiy fe’llar ham fe’liy sifatlar doirasiga kiradi.

Moturidiylik ta’limotiga ko‘ra, zotiy va fe’liy sifatlar bir-biridan ta’rifda farq qilsa-da, mohiyat jihatidan ikkalasi ham azaliy va qadimiy sifat hisoblanadi. Chunki fe’liy sifatlar ham zotiy «takvin» sifati ostiga kiradi. Fe’liy sifatning azaliy, qadimiylik hukmi ham shundan kelib chiqadi.

Ash’ariylik ta’limotiga ko‘ra, zotiy sifatlar inkor qilinganda, ularning ziddi (aksi) kelib chiqadigan sifatlar «zotiy sifat» deyiladi. Masalan, hayot sifati inkor qilinsa, uning ziddi – o‘lim kelib chiqadi. Qudrat sifati inkor qilinsa, uning ziddi – ojizlik kelib chiqadi. Bu ta’rifga ko‘ra, ash’ariylarning nazdida iroda sifati inkor qilinsa, majburlik va iztiror (majburiyat) yuzaga keladi. Agar kalom sifati inkor qilinsa, soqovlik va sukut (jimlik) kelib chiqadi. Demak, ularning e’tiqodiga ko‘ra, mazkur ikki sifat (iroda va kalom) ham zotiy sifatlar hisoblanadi. Ularning nazdida fe’liy sifatlar inkor qilinganda, ularning ziddi kelib chiqmaydigan sifatlardir. Masalan, tiriltirish, o‘ldirish, yaratish, rizq berish sifatlarini inkor qilsangiz, ularning mutlaq ziddi kelib chiqmaydi.

Mo‘taziliylik ta’limotiga ko‘ra, Alloh taoloning fe’liy sifatlari yaratish, rizq berish kabi amaliy ishlar bilan bog‘liq bo‘lib, ular musbat yoki manfiy shaklda ifoda etilishi mumkin. Masalan, «falon kishiga farzand yaratdi, falonchiga esa yaratmadi» yoki «Zaydga rizq berdi, Amrga esa bermadi» kabi. Bu kabi fe’llar ba’zan amalga oshgan, ba’zan esa amalga oshmagan holda tilga olinadi. Mo‘taziliylar bu turdagi sifatlarni hodis, ya’ni keyin paydo bo‘lgan, vaqt va holatga bog‘liq sifatlar deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, zotiy sifatlarni manfiy shaklda ifoda etish mumkin emas. Masalan, ilm va qudrat sifatlarini Alloh taologa nisbatan «falon narsani bilmadi» yoki «falon ishga qudrati yetmadi» deb ishlatib bo‘lmaydi. Chunki mazkur sifatlar Allohning zotiy abadiy sifatlaridir. Shuningdek, mo‘taziliylar nazdida iroda va kalom sifatlari fe’liy sifatlarga kiradi. Chunki bu ikki sifatni musbat va manfiy ma’nolarda ishlatish mumkin.

Moturidiylik ta’limotiga ko‘ra, takvin sifati zotiy va qadimiy sifat bo‘lib, Alloh taolo mazkur sifat bilan azalda sifatlangan. Maxluqotlar mazkur sifat orqali yaratilgan bo‘lib, takvin sifati azaliy, u orqali paydo bo‘lgan narsalar hodisdir. Bu xuddi Alloh taoloning ilm sifati qadimiy bo‘lib, ma’lumotlar yaratilgan ekaniga o‘xshaydi. Alloh taoloning takvin sifati boqiydir. Har bir mavjudot uning azaliy takvini ila paydo bo‘ladi.

Abul Muin Nasafiy ushbu masalada moturidiylarning e’tiqodi to‘g‘ri ekanini ta’kidlab shunday deydi: «Biz aytgan so‘zimiz to‘g‘riligiga Alloh taoloning quyidagi oyati dalil bo‘ladi: «Bir narsani iroda qilsak, unga aytadigan so‘zimiz «Bo‘l!» deyishdir, xolos, bas, u bo‘ladi» (Nahl surasi, 40-oyat). Alloh taolo O‘zining takvin sifatini mazkur oyatda كن [kun] – «bo‘l» so‘zi bilan ifoda etiladi. Alloh taolo mukavvan (yaralmish)ni esa فيكون [fayakunu] – «bo‘ladi» so‘zi bilan ifodalagan. Shuningdek, yaralmishni mazkur oyatda «shay’» (narsa) deb aytadi. Ushbu «kun» xitobi ash’ariylikda ham, boshqa mutakallimlar nazdida ham mukavvan (yaralmish)dan boshqa narsa hisoblanadi. Bizning nazdimizda ham, ash’ariyning nazarida ham Alloh taoloning «kalom» sifati Alloh taoloning Zotida mavjud, azaliy va zotiy sifatdir. Mukavvan, ya’ni javharlar hamda arazlar yaratilgan bo‘lib, ular Alloh taoloning Zotida qoim emas. Shubhasiz, azaliy va yaratilgan narsalar orasida ham, Alloh taoloning Zotida mavjud sifat bilan Uning Zotida mavjud bo‘lmagan sifat o‘rtasida ham farq mavjud. Takvin (paydo qilish) – bu «at-takavvun» (التكون), ya’ni hosil bo‘lish bilan bog‘liq narsadir. «Ijod» (yaratish) esa mavjud bo‘lish bilan bog‘liq narsadir. Olamning

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

mavjudligi «kun» xitobiga bog‘liq. Demak, bu ijod (yaratish), takvin va yaratish bo‘lib, u yaratilgan, mukavvan narsadan boshqadir».

Demak, takvin ilm, qudrat, eshitish, ko‘rish sifatlari kabi Alloh taoloning Zotida qoim azaliy sifatdir. Takvin azaliy, mukavvan (yaralmish) esa hodis (paydo bo‘lgan)dir. Misol uchun, qudrat sifati Allohning azaliy sifati, maqdur (qudrat asosida paydo bo‘lgan narsa) esa hodisdir. Iroda sifati va murod (iroda qilingan ish) ham xuddi shunday. Takvin har bir mukavvan (yaralmish)ning yuzaga kelish paytida unga takvin bo‘ladi. Bu xuddi har bir mavjud narsaning paydo bo‘lishini Alloh taoloning iroda qilishiga o‘xshaydi. Chunki mavjud narsaning yuzaga kelish vaqtida paydo bo‘lishi uchun Allohning irodasi bo‘ladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Muin Maymun ibn Muhammad. Tabsira al-adilla fi usul ad-din // Huseyn Atay tahqiqi. – Anqara: Raislik ishlari bo‘yicha diniy ishlar boshqarmasi, 2004.
2. Shayx Kamoliddin Ahmad bin Hasan. Ishorat al-marom min Iborot al-Imom Abu Hanifa. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2007.
3. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid // Fathulloh Xulayf tahqiqi. – Iskandariya: Dor al-jomi’a al-misriya, 1970.
4. Qosim ibn Qutlubg‘o. Hoshiya ala al-musomara ala al-Musoyara. – Qohira: al-Maktaba al-azhariya, 2006.
5. Abul Muin Nasafiy. Bahr al-kalom // Muhamma Sayyid Barsijiy tahqiqi. – Iordaniya: Dor al-fath, 2014.
6. Xiyoliy. Sharh al-Xayoliy ala an-Nuniya li-l-mavla Xizr ibn Jaloliddin // Abdunnasir Natur Ahmad Malibariy. – Qohira: Maktaba vahba, 2008.

REFERENCES

7. Abu Muin Maymun ibn Muhammad. Tabsira al-adilla fi usul ad-din // Huseyn Atay tahqiqi. – Anqara: Raislik ishlari bo‘yicha diniy ishlar boshqarmasi, 2004.
8. Shayx Kamoliddin Ahmad bin Hasan. Ishorat al-marom min Iborot al-Imom Abu Hanifa. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2007.
9. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid // Fathulloh Xulayf tahqiqi. – Iskandariya: Dor al-jomi’a al-misriya, 1970.
10. Qosim ibn Qutlubg‘o. Hoshiya ala al-musomara ala al-Musoyara. – Qohira: al-Maktaba al-azhariya, 2006.
11. Abul Muin Nasafiy. Bahr al-kalom // Muhamma Sayyid Barsijiy tahqiqi. – Iordaniya: Dor al-fath, 2014.
12. Xiyoliy. Sharh al-Xayoliy ala an-Nuniya li-l-mavla Xizr ibn Jaloliddin // Abdunnasir Natur Ahmad Malibariy. – Qohira: Maktaba vahba, 2008.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.